# YEVROPA ITTIFOQINING IQTISODIY SALOHIYATI VA O'ZBEKISTON BILAN SAVDO-IQTISODIY ALOQALAR

**Umarov Sanjar Faridovich,**
**Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi talabasi**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**
**E-mail: sanjaru0515@icloud.com**
**Telefon: +998 91523 50 19**
**Ilmiy rahbar: Narov Ulug'bek Iriskulovich,**
**Iqtisodiyot fanlari doktori,**
**Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasi professori**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

**Annotatsiya**. Maqolada Yevropa Ittifoqining shakllanish tarixi, institutsional boshqaruv tizimi, makroiqtisodiy salohiyati hamda xalqaro savdodagi o'rni tahlil qilingan. YI iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari, tashqi savdo strategiyasi va nisbiy iqtisodiy salmoq indeksi asosida uning jahon iqtisodiyotidagi mavqei baholangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari, tovar ayirboshlash tarkibi hamda GSP+ tizimining mahalliy eksport imkoniyatlarini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston va YI o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hamda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar**: Yevropa Ittifoqi, iqtisodiy integratsiya, makroiqtisodiy salohiyat, tashqi savdo, GSP+, eksport, import, nisbiy iqtisodiy salmoq indeksi, O'zbekiston, xalqaro iqtisodiy hamkorlik**.**

**Kirish.** Yevropa Ittifoqi jahon iqtisodiyotining yetakchi integratsion birlashmalaridan biri hisoblanadi [2]. Uning iqtisodiy salohiyati va xalqaro savdodagi o'rni global iqtisodiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [3, 7]. Shu bilan birga,

Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri sanaladi. Mazkur maqolada Yevropa Ittifoqining iqtisodiy salohiyati, tashqi savdo faoliyati hamda O‘zbekiston bilan iqtisodiy hamkorligining asosiy jihatlari tahlil qilinadi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholash usullaridan foydalanildi. Yevropa Ittifoqining iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari, tashqi savdo hajmi va tarmoq tarkibi bo‘yicha World Bank, IMF hamda UNCTAD ma’lumotlari o‘rganildi. O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar dinamikasini baholashda taqqoslash usuli qo‘llanildi. Shuningdek, mamlakatlar iqtisodiy salohiyatini demografik ko‘rsatkichlar bilan solishtirish maqsadida nisbiy iqtisodiy salmoq indeksi hisoblandi va tahlil qilindi.

**1. YI Integratsiyasining Shakllanishi va Institutsional Boshqaruv Tizimi**

Yevropa integratsiyasi g‘oyasi Ikkinchi Jahon urushidan keyin qit’ada mustahkam tinchlik o‘rnatish, vayron bo‘lgan iqtisodiyotni tiklash hamda ikki qutbli dunyo tizimida mintaqaning siyosiy nufuzini saqlab qolish zarurati tufayli vujudga keldi. Bu harakatning boshlang‘ich nuqtasi U. Cherchillning 1946-yilgi nutqi hisoblanadi. Integratsiya jarayoni 1951-yilda Yevropa ko‘mir va po‘lat hamjamiyatini (ECSC) hamda 1957-yilda Rim shartnomasiga muvofiq Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini (EEK, Umumiy bozor) tuzish orqali bosqichma-bosqich rivojlandi [3].

Yevropa Ittifoqi o‘zining strategik xususiyatlariga ko‘ra universal xalqaro tashkilotlardan tubdan farq qiluvchi nafaqat iqtisodiy, balki o‘ziga xos "millatlararo birlik" ("davlat") ko‘rinishiga ega:

**Mustaqil institutlar tizimi:** Ittifoq organlari mustaqil vakolatlarni amalga oshiradi va majburiy huquqiy hujjatlarni qabul qiladi.

**Avtonom huquqiy va byudjet tizimi:** YI qonunchiligi ustuvor ahamiyatga ega [4]. Byudjet a’zo davlatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri badallari hisobidan emas, balki bojlar, QQS hamda milliy YAIMning 1,2% idan ko‘p bo‘lmagan ajratmalar ("o‘z mablag‘lari")

hisobiga shakllanadi.

**Yagona valyuta hududi (Yevrozona):** 2024–2025-yillar holatiga yevro valyutasidan rasmiy ravishda foydalanuvchi 20 ta davlatni birlashtirad [4]i.

**Yagona ichki bozor va fuqarolik:** Shengen hududi doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining erkin harakatlanishi ta’minlangan [3].

YI oliy siyosiy yo‘nalishi Yevropa Kengashi tomonidan belgilanadi [3]. Oliy ijro etuvchi organ hisoblangan Yevropa Komissiyasi (Bryussel) 27 ta a’zo davlat vakillaridan iborat bo‘lib, faqat Ittifoq manfaatlarini ko‘zlaydi.

## 2. Yevropa Ittifoqi Bozorlarining Makroiqtisodiy Salohiyati

Yevropa Ittifoqi iqtisodiyoti global xo‘jalik tizimining eng yirik va yetakchi qutblaridan biri hisoblanadi. Yagona ichki bozor va umumiy valyuta makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda a’zo davlatlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

1-jadval. YI iqtisodiy rivojlanishining asosiy indikatorlari (2024-y.)

| Ko’rsatkich | Qiymat |
|---|---|
| YAIM (nominal) | 19.2 trln dollar |
| YAIM (Xarid qobiliyati pariteti - PPP) | 26.5 trln dollar |
| Aholi jon boshiga YAIM (nominal) | 48 ming dollar |
| Aholi jon boshiga YAIM (PPP) | 55 ming dollar |

Manba: World Bank va IMF ma’lumotlari asosida tuzilgan [1, 2].

YI iqtisodiyotining makrostrukturasi yaqqol ifodalangan postindustrial xarakterga ega. Umumiy YAIM tarkibida eng yirik ulush xizmatlar ko‘rsatish sohasiga (qariyb 74%) to‘g‘ri keladi [2, 5]. Bu soha tarkibida moliya-bank operatsiyalari, yuqori texnologiyali IT-xizmatlar, transport-logistika va turizm tarmoqlari yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi. Sanoat tarmoqlarining ulushi 24% ni tashkil etib [2, 5], uning asosini

ilm-fan va innovatsiyalarga tayanuvchi yuqori texnologiyali mashinasozlik, avtomobilsozlik, aniq kimyo va farmatsevtika tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi ulushi umumiy YAIMda atigi 1,5% atrofida bo‘lsa-da [5], u YIning Yagona qishloq xo‘jaligi siyosati (CAP) doirasida kuchli dotatsiya va subsidiyalar bilan ta’minlangan o‘ta yuqori mahsuldor va intensiv tarmoq hisoblanadi.

YI ichki iqtisodiy arxitektonikasi asimmetrik xarakterga ega bo‘lib, unda iqtisodiy "yadro" va "periferiya" tushunchalari mavjud. Ittifoq umumiy iqtisodiy salohiyatining qariyb 65–70% qismi uning beshta eng yirik iqtisodiyotlari — Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Niderlandiya hissasiga to‘g‘ri keladi [2]. Ayniqsa, Germaniya Ittifoqning "iqtisodiy lokomotivi" sifatida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Shu bilan birga, Ittifoq ichida konversiya (yaqinlashish) jarayonlari faol kechmoqda. Agar "yadro" mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya) o‘sish sur’atlari mo‘tadil va turg‘un (0,5% – 1,5%) ko‘rinishga ega bo‘lsa, YIga keyinchalik qo‘shilgan Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari (Polsha, Ruminiya, Chexiya, Bolgariya) Ittifoq jamg‘armalari ko‘magida ancha yuqori o‘sish dinamikasini (2% – 4%) namoyish etib [1, 2], umumiy rivojlanish darajasini tenglashtirishga hissa qo‘shmoqda.

So‘nggi o‘n yillikda YI makroiqtisodiyoti jiddiy tebranishlarni boshdan kechirdi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli ishlab chiqarish zanjirlarining uzilishi va lokdaunlar natijasida YI YAIMi -5,6% ga retsessiyaga uchradi [1]. Biroq, ko‘rilgan keng ko‘lamli moliyaviy barqarorlashtirish choralari tufayli 2021-yilda iqtisodiyot 5,4% lik tezkor tiklanish ko‘rsatkichini qayd etdi [1]. Bugungi kunda (2024–2025 yy.) Ittifoq iqtisodiyoti global geosiyosiy keskinliklar va energiya inqirozi oqibatlarini bartaraf etgan holda 0,9% dan 1,4% gacha bo‘lgan mo‘tadil va barqaror o‘sish trayektoriyasiga chiqib oldi [1].

### 3.Tashqi Savdo Strategiyasi va Nisbiy Iqtisodiy Salmoq Indeksi

Yevropa Ittifoqining tashqi iqtisodiy strategiyasi xalqaro mehnat taqsimotida yuqori texnologiyali va intellektual sig‘imli bo‘g‘inlarni egallashga qaratilgan. YI tashqi

savdo aylanmasi transmilliy xarakterga ega bo‘lib, yillik umumiy eksport va import hajmi qariyb 9 trln AQSh dollarini tashkil etadi ва global qo‘shilgan qiymat zanjirlarining (GVC) markaziy qismini boshqaradi [7, 10].

Ittifoqning eksport siyosati "sifat va innovatsiya" tamoyiliga asoslanadi. Eksport tarkibida kapital sig‘imi yuqori bo‘lgan tayyor mahsulotlar — avtomobilsozlik, aerokosmik texnika, murakkab sanoat uskunalari, farmatsevtika va nozik kimyo mahsulotlari ustunlik qiladi [7]. Import tizimida esa xomashyo va energiya resurslaridan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlardan keltiriladigan mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan butlovchi qismlar va iste’mol mollari muhim o‘rin tutadi [7].

2-jadval. YIning eksport va import bo‘yicha asosiy savdo hamkorlari (2024-y., ulush % da)

| Eksport bo’yicha hamkorlar | Ulush (%) | Import bo’yicha hamkorlar | Ulush (%) |
|---|---|---|---|
| AQSh | 19-20 | Xitoy | 20-21 |
| Birlashgan Qirollik | 13-14 | AQSh | 13-14 |
| Xitoy | 8-9 | Birlashgan Qirollik | 6-7 |
| Shveysariya | 7-8 | Shveysariya | 6 |

Manba: IMF va UNCTAD ma’lumotlari asosida tayyorlangan [1, 6].

Xalqaro makroiqtisodiy tahlillarda mamlakat iqtisodiy salohiyatining uning demografik ko‘lamiga mosligini qiyosiy baholash uchun **Nisbiy iqtisodiy salmoq indeksi (**E**)** qo‘llaniladi. Mazkur indeks davlatning jahon YAIMdagi ulushining uning jahon aholisidagi ulushiga nisbati sifatida hisoblanadi:

$$E = \frac{GDPshare}{\text{POPULATIONshare}}$$

Ushbu ko‘rsatkichning E > 1 bo‘lishi iqtisodiy mahsuldorlikning dunyo o‘rtacha darajasidan yuqoriligini, E < 1 bo‘lishi esa nisbiy ortda qolish yoki iqtisodiyotning

modernizatsiya bosqichida ekanligini anglatadi. Jahon banki va XVJ ma’lumotlari tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatadi [1, 2]:

**Yevropa Ittifoqi uchun:**

EYI = (16,5%)/(5,7%) ≈ 2,9. [1, 2]

Bu ko‘rsatkich YI dunyo aholisining atigi 5,7% ini tashkil etgani holda, global mahsulotning qariyb uchdan bir qismini ishlab chiqarishini, ya’ni postindustrial taraqqiyot va yuqori kapitallashuv darajasini ifodalaydi.

**O‘zbekiston Respublikasi uchun:**

EO'zb =(0,095%)/(0,45%) ≈ 0,21. [1, 2, 11]

Ushbu qiymat respublika iqtisodiyotining demografik o‘sish sur’atlariga nisbatan hali to‘liq safarbar etilmagan salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Mazkur nomutanosiblik O‘zbekiston va YI o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning assimetrik xususiyatini belgilab beradi hamda milliy iqtisodiyot tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli tarmoqlarni rivojlantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

**4. O‘zbekiston Respublikasining YI Mamlakatlari Bilan Savdo Shartlari va Tovar Ayirboshlash Tuzilmasi**

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan o‘zaro munosabatlari ko‘p tomonlama xalqaro huquqiy va institutsional poydevorga ega. Hamkorlikning dastlabki huquqiy asosi 1996-yilda Florensiyada imzolangan va 1999-yilda kuchga kirgan **Sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (SHTB)** hisoblanadi [9]. Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik nuqtai nazaridan YI Markaziy Osiyo umumiy tashqi savdosining qariyb 24–25% ini ta’minlab, mintaqadagi muvozanatni saqlashda muhim tashqi iqtisodiy muqobil (balans) bo‘lib xizmat qiladi [10].

Zamonaviy bosqichda ikki tomonlama aloqalar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunga, bir tomondan, **Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (KSHHB)** muzokaralarining muvaffaqiyatli yakunlangani sabab

bo‘lsa [9], ikkinchi tomondan, 2021-yil 10-apreldan boshlab O‘zbekistonning YIning Barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo‘yicha maxsus prefirensiyalar tizimiga (**GSP+**) benefitsiar sifatida qabul qilinishi turtki berdi [8]. GSP+ statusi standart GSP tizimidan tubdan farq qilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 6200 dan ortiq turdagi tovarlarni Yevropa bozoriga butunlay **nol darajali (bojsiz)** tarif stavkalari bilan eksport qilish imkonini yaratdi [8].

O‘zaro tovar ayriboshlash tarkibining chuqur tarkibiy tahlili iqtisodiy aloqalarning o‘ziga xos arxitektonikasini ko‘rsatadi:

1. **O‘zbekiston eksportining tarkibiy diversifikatsiyasi:** Tarixiy jihatdan mamlakat eksportining asosini past qiymatga ega xomashyo komponentlari (paxta tolasi, uran, qimmatbaho va rangli metallar) tashkil etgan. GSP+ mexanizmi joriy etilgandan so‘ng, eksport guruhida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan tayyor tovarlar ulushining barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, tayyor to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari, mis va mis-kabel buyumlari, kimyo sanoati tovarlari hamda YI sanitariya talablariga mos keluvchi quritilgan meva-sabzavot mahsulotlarining Yevropa bozorlaridagi ulushi izchil ortmoqda [9, 11].

2. **YIdan amalga oshirilayotgan importning investitsion tabiati:** Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan O‘zbekistonga keltirilayotgan tovarlar oqimi yaqqol ifodalangan modernizatsiyalash va investitsion xarakterga ega. Import tarkibining asosiy qismini mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat drayverlarini texnologik jihatdan qayta jihozlashga mo‘ljallangan yuqori texnologiyali avtomatlashtirilgan uskunalar, mashina va mexanizmlar, transport vositalari, elektr texnikasi, shuningdek, yuqori sifatli farmatsevtika preparatlari hamda murakkab kimyoviy komponentlar tashkil etadi [11]. Bu holat ikki iqtisodiyot o‘rtasidagi mehnat taqsimotining komplementar (bir-birini to‘ldiruvchi) ekanligini tasdiqlaydi: O‘zbekiston o‘z sanoatini modernizatsiya qilish uchun Yevropaning ilg‘or texnologik salohiyatini jalb etmoqda, YI esa O‘zbekiston

qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan sanoat va agrar mahsulotlar uchun yirik xarid qobiliyati yuqori bo‘lgan bozor vazifasini o‘tamoqda.

**Xulosa**

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqi O‘zbekiston Respublikasi uchun nafaqat yirik savdo hamkori, balki sanoatni texnologik yangilashda muhim investitsiya va innovatsiyalar manbaidir. Iqtisodiy aloqalardagi mavjud tarkibiy assimetriyani kamaytirish va hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi strategik yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

1. **Normativ-huquqiy bazani uyg‘unlashtirish:** Milliy texnik tartibga solish tizimini YIning qat’iy standartlariga (CE sertifikati, fitosanitariya talablari) moslashtirish [8], mahalliy tayyor mahsulotlarning YI bozoriga kirishidagi asosiy to‘siqlarni bartaraf etadi.
2. **Investitsiyaviy hamkorlikni transformatsiya qilish:** Diqqatni shunchaki tayyor Yevropa uskunalarini import qilishdan, O‘zbekiston ichida qo‘shma yuqori texnologiyali korxonalar yaratishga qaratish lozim. Bu mahalliy xomashyoni (mis, tekstil, kimyo) respublika hududida chuqur qayta ishlab, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.
3. **Logistika yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish:** Transkaspiy xalqaro transport yo‘nalishini ("Markaziy koridor") infratuzilmaviy rivojlantirish va raqamlashtirishni jadallashtirish zarur [10]. Bu geografik uzoqlik omilini kamaytirib, transport xarajatlarini optimallashtiradi.
4. **"Yashil" iqtisodiyotga o‘tish:** YIning energiya tejovchi texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish orqali kelajakda YI tomonidan qo‘llaniladigan transchegaraviy uglerod solig‘i (CBAM) xavflarini neytrallash mumkin.

Istiqbolda Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning (KSHHB) hayotga to‘liq tatbiq etilishi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni barqaror rivojlanish,

innovatsiyalar va o‘zaro manfaatli strategik sheriklikka asoslangan yangi modelga o‘tkazishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati**

1. International Monetary Fund. World Economic Outlook Database 2024–2025. https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database
2. World Bank. World Development Indicators. https://data.worldbank.org
3. Eurostat. Official Statistics Database (Comext). https://ec.europa.eu/eurostat
4. European Central Bank. Euro and Monetary Statistics. https://www.ecb.europa.eu
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Economic Outlook and Trade in Value Added (TiVA). https://www.oecd.org
6. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). World Investment Report. https://unctad.org
7. World Trade Organization (WTO). Trade Statistics Database. https://www.wto.org
8. European Commission. EU Trade Policy and GSP Scheme. https://policy.trade.ec.europa.eu
9. Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan. Uzbekistan–EU Trade Statistics. https://www.uzembassy.org.tr/news/6636?language=en
10. Eurostat. International Trade in Goods Statistics (Comext). https://ec.europa.eu/eurostat/web/international-trade-in-goods region/countries-and-regions/central-asia_en

11. Statistical Agency of the Republic of Uzbekistan. Official Foreign Trade Statistics.
https://stat.uz